

UO‘T: 633.1

**SO‘YA O‘SIMLIGI YETISHTIRISHDA TUPROQ NAMLIGINING
O‘SIMLIK RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI**

Abdulxafizov Xalilillo Abdug‘ani o‘g‘li

AQXAI magistranti

Mamadaliyeva Sevaraxon G‘ofurjon qizi

AQXAI magistranti

Abdavaxobov Muhammadali Zoxidjon o‘g‘li

AQXAI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oqsil manbai hisoblangan soya o‘simligi yetishiriladigan tuproqdagi namlik miqdorini o‘simlik o‘sib rivojlanishiga tasiri keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: CHDNS(chegaraviy dala nam sig‘imi), tuproq namligi, Gavhar, dukkaklash, gullash, g‘unchalash.

Bugungi kunda dunyoda eng katta muomolardan biri bu aholi soni daqiqalar sayin oshayotgani hisoblanib bu ko‘rsatkich insonlarni sifatli va xavsiz oziq ovqat bilan ta‘minlashdek vazifazni qolaversa oziq ovqat yetishtirishda resurs bo‘lib xizmat qilayotgan tuproq va suv kabi boyliklarimizdan oqilona foydalanishni taqazo etmoqda.

Mamlakatimizda soya yetishtirish orqali sifatli oqsil va ekologik toza o‘simlik moyi yetishtirishni ko‘paytirish mumkin. Bu o‘simlik o‘z tarkibida 38-45 foiz oqsil va 22-24 foizgacha o‘simlik moyi saqlaydi. Soya doni oqsilidan 400 dan ziyod turli xil sanoatda, qishloq xo‘jaligida, oziq-ovqat sanoatida, meditsinada kosmetikada

ishlatiladigan ekologik toza inson ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan bir qator maahsulotlar olinadi.

Soya yer sharida keng tarqalgan qadimiy o‘simliklardan hisoblanadi. Olimlarning fikriga ko‘ra, soyaning vatani Osiyoning janubiy-sharqiy hududlari hisoblanadi. Sharq mamlakatlarida soya qadimdan oziq-ovqat ekini sifatida ekib kelingan.

Soya Xitoyda bundan 6 ming yillar muqaddam ham ekilgan. Hindiston soyaning Xitoydan keyin keng tarqalgan ikkinchi vatani hisoblanadi. Soya juda qadimdan Gang daryosi atrofidagi yerlarga ekilgan.

Soya o‘simligi hozirgi kundagi asosiy masala - oqsil tanqisligini hal etishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Soya oqsili o‘zining kimyoviy tarkibi jihatidan hayvon oqsiliga o‘xshash bo‘lgani uchun ham barcha rivojlangan mamlakatlarda soya yetishtirishga juda katta e‘tibor berilmoqda. Yaponiyada sholi va sabzavot ekinlaridan keyin soya bilan band bo‘lgan yerlar o‘z kattaligi jihatidan uchinchi o‘rinni egallaydi. Yaponiya chet ellardan ham ko‘p miqdorda soya sotib olmoqda. Keltirilgan donlar turli maqsadlar uchun foydalanilmoqda. Hozirgi kunda ipak qurti tutishda soya donidagi oqsildan foydalanilmoqda.

Soya uni o‘z tarkibida oddiy mol go‘shriga qaraganda ikki-uch baravar oqsil saqlaydi. Go‘shriga oqsil 18-25 foizgacha bo‘lsa, soya uni izolyatida oqsil miqdori 80 foizga yetadi. Hozirgi kunda respublikamizda go‘shir zavodlarining kolbasa ishlab chiqaruvchi sexlarida ishlab chiqarilayotgan kolbasalarning tarkibiga 10-15 foizdan soya izolyati qo‘shilmoqda.

Ma‘lumot o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda butun dunyo bo‘yicha 122 mln gektar maydonda soya yetishtirib kelinmoqda. Respublikamizda moyli ekinlarga talab sezilarli darajada ortgani bois 2022-yilda mamlakatimizda mamlakatda birinchi soya va moyli ekinlar elita urug‘chilik xo‘jaligi tashkil etildi.

Bizning ilmiy izlanishlarimiz Andijon viloyatidagi donli va dukkakli o‘simliklar ilmiy tekshirish institutining tajriba xo‘jalik yerlarida o‘tloqi bo‘z tuproqlar sharoitida takroriy ekilgan soyaning ertapishar navlarini sug‘orish tartiblarini aniqlash ustida o‘tkazildi.

Tuproqni sug‘orishdan oldingi namligi, CHDNS ga nisbatan, 70-70-60% qilib belgilangan 1-variantimizda soyaning Gavhar navi rivojlanishi g‘unchalashda bo‘yi 26,0sm, shonalari 4,1 dona hosil shoxlari esa 1,7 dona, gullashda bo‘yi 30,5sm hosil shoxlari 3,3 donani gullari esa 10,5 donanani, dukkaklashda bo‘lsa bo‘yi 55,5sm hosil shoxi 5,5 dona dukakklar soni 35,2 donani tashkil etgan bo‘lsa, pishish davriga kelganda bu ko‘rsatkichlar bo‘yi 65,3 dukkaklar soni 46,2 dona don soni 11.2 donani tashkil etgani kuzatildi.

Cheklangan dala nam sig‘imi 75-75-65% qilib belgilangan 2-variantimizda o‘simlikning amal davri mobaynida rivojlanishi g‘unchalashda bo‘yi 26,5sm shonalari 4,3 dona hosil shoxlari esa 1,85 dona, gullashda bo‘yi 31,4sm hosil shoxlari 3,2 donani gullari esa 11,2 donanani, dukkaklashda bo‘lsa bo‘yi 56,2sm hosil shoxi 5,8 dona dukakklar soni 35,5 donani tashkil etgan bo‘lsa, pishish davriga kelganda bu ko‘rsatkichlar bo‘yi 66,2 dukkaklar soni 47,3 dona don soni 11.3 donani tashkil etgani kuzatildi.

Tuproqni sug‘orishdan oldingi namligi, CHDNS ga nisbatan, 70-80-70% qilib belgilangan 3-variantimizda soya o‘simligining rivojlanishi quyidagicha g‘unchalashda bo‘yi 27,5sm shonalari 4,4 dona hosil shoxlari esa 1,9 dona, gullashda bo‘yi 32,0sm hosil shoxlari 3,6 donani gullari esa 11,8 donanani, dukkaklashda bo‘lsa bo‘yi 58,0sm hosil shoxi 6,0 dona dukakklar soni 36,2donani tashkil etgan bo‘lsa, pishish davriga kelganda bu ko‘rsatkichlar bo‘yi 65,1 dukkaklar soni 48,2dona don soni 11.5 donani tashkil etganini kuzatdik. (1-jadval)

Tajribalarimiz shuni ko‘rsatdiki chdns (chegaraviy dal nam sig‘imi) 70-80-70% qilib belgilangan 3- variantimizda yuqori hosil olishga erishildi.

Tuproqni sug‘orishdan oldingi namligini soya o‘simligining rivojlanishiga ta’siri

1-jadval

Variant tartibi	CHDNS ga nisbatan, % tuproqni sug'orishdan oldingi namligi	G'unchalashda			Gullashda			Dukkaklashda			Pishishda		
		Bo'y i sm	Shonalar, dona	Hosil shoxi, dona	Bo'y i sm	Hosil shoxi, dona	Gullar i dona	Bo'y i sm	Hosil shoxi, dona	Dukkak soni, dona	Bo'yi sm	Dukkak soni, dona	Don soni, dona
Gavhar													
1	70-70-60	26,0	4,1	1,7	30,5	3,3	10,5	55,5	5,5	35,2	65,3	46,2	11,2
2	75-75-65	26,5	4,3	1,85	31,4	3,2	11,2	56,2	5,8	35,5	66,2	47,3	11,3
3	70-80-70	27,5	4,4	1,9	32,0	3,6	11,8	58,0	6,0	36,2	65,1	48,2	11,5

XULOSA

Soya o'simligini yetishtirishda respublikamiz soyashunos olimlarining tavsiyalariga asosan agrotexnologiyalarini vaqtida tuproq namligi ko'rsatilgan miqdorida ushlab turish o'simlikda yuqori va sifatli hosil olishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Nematov.U.M. Isashov. A. Takroriy ekin soya navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda sug'orish tizimlarini asoslash. Monografiya Toshkent 2021-yil.
2. Soya agrotexnikasi (fermerlar uchun tavsiyanoma) Toshkent-2017
3. Ahmet Nedim Nazlican, Soya yetishtiriciligi